

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

BERDIKULOVA NASIBA ERKINJONOVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI
TAYYORLASHDA INNOVATSION VA INTEGRATSION
TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of the abstracts of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Berdikulova Nasiba Erkinjonovna

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va
integratsion texnologiyalarni takomillashtirish 3

Бердикулова Насиба Эркинжоновна

Совершенствование инновационных и интеграционных технологий в
подготовке будущих учителей начальных классов 21

Berdikulova Nasiba Erkinjonovna

Improvement of innovative and integrative technologies in the training of future
primary school teachers 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of publications 45

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

BERDIKULOVA NASIBA ERKINJONOVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI
TAYYORLASHDA INNOVATSION VA INTEGRATSION
TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PHD/Ped4715 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (<http://samdu.uz>) va Ziyonet axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hasanova Kibriyo

pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxmudova Muyassar Maxmudovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "11" dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (0366) 239-12-29, faks: (0366) 239-13-87; e-mail: Samdu_Ped_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (125 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (0366) 239-11-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "27" noyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil "27" noyabr dagi 38 - raqamli reyestr bayonnomasi).



A.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, pedagogika fanlari doktori, dotsent

E.A.Abdumannatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

N.S.Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida fanlarda yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi hamda fanlararo integratsiyaning jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborotlar, xususan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yilgan talablarning ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitlarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy qilish, axborotlarni uzatishda fanlararo aloqadorlik tamoyillariga qat'iy amal qilish muammolari yuzaga kelmoqda. Natijada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining innovatsion va integratsion texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyatini oshirmoqda.

Dunyo miqyosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni, ijtimoiy va tabiiy yaxlitlik sifatida real dunyoning mavjudligi va rivojlanishi qonunlari, uning elementlari o'rtasidagi asosiy aloqalar va munosabatlarning tabiati haqida tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammosining o'ziga xos xususiyatlari, ta'limni tashkil etish jarayonida innovatsiya va integratsiya muammolari, integratsiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini ta'lim jarayonini tashkil etishning innovatsion va integratsion texnologiyalari, jumladan, integratsiya jarayonlarining qonuniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitish dolzarb vazifalarga aylanmoqda.

Mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, tabaqalashtirish, variativ o'quv rejalari, fanlarni o'qitishda o'quvchilarni hayotga tayyorlash tamoyillarini keng joriy qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Pedagogika sohasi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun o'zgaruvchan o'quv reja va dasturlarni joriy etish..."¹ vazifalari belgilanib, talabaning aqliy, intellektual va jismoniy kuchlarini ma'lum bir maqsadga yo'naltirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirish, bilimlarni, dizaynni, kommunikativ-nutq hamda tashkiliy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish asosida nazariy bilim, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar asosida fanlararo integratsiyaning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5847-son, 2022-yil 6-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ–289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Milliy pedagogikada N.Azizxo'jayev, Sh.Sharipov, M.Quronov, R.Safarova, B.Adizov, N.Shodiyev, X.Ibraimov, U.Tolipov, Sh.Olimov, Sh.Abdullaevalarning ilmiy tadqiqotlarida innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammosining o'ziga xos xususiyatlariga, ya'ni mustaqillik, ta'limning milliy, ma'naviy-axloqiy, ijodiy va badiiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

So'ngi yillarda ta'limda integratsiyaning nazariy asoslari qoidalari jadal rivojlanmoqda. S.V.Aronov, R.R.Axmatbekov, S.N.Babina, G.A.Bordovskiy, T.A.Zolotova, I.V.Klimenko, L.N.Mun, E.V.Orlov, L.A.Petrenko, E.Y.Sizganova, I.O.Sorokina va boshqalar o'z asarlarida ta'lim tizimida integratsiyaning nazariy asoslarini ochib berishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti pedagogika kafedrasining "Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy strategiyasi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va integratsion texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pedagogik va uslubiy adabiyotlarni o'rganish asosida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash zaruratini yoritish va manbalarni tahlil qilish;

boshlang'ich ta'limda innovatsion va integratsion texnologiyalarni samarali qo'llashning nazariy asoslarini aniqlash va asoslash;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mashg'ulotlarda zamonaviy innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash shartlarini aniqlash;

boshlang'ich ta'limda innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini ta'minlaydigan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va integratsion texnologiyalarni takomillashtirish

jarayonlari belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro va Samarqand davlat universitetlari hamda Jizzax davlat pedagogika universitetidan 406 nafar talaba jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va integratsion texnologiyalarni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni, shakli, vositalari va usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik va pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, empirik usullar: aniqlash, shakllantirish va nazorat qilish, tajribalar, diagnostik usullar, so'rovnomalar, empirik materiallarni tahlil qilish va sintez qilish, o'xshashliklarni yaratish, mantiqiy usullar, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, ta'lim faoliyatini ekspert baholash, pedagogik tahlilni amaliy mashg'ulotlar jarayoni, matematik va statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentlilik mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual va fiziologik xususiyatlariga mos keluvchi o'quv jarayonini tashkil etish darajalarini kognitiv jarayonlarga korrelyativligini ta'minlovchi integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga doir ko'nikma va malakalarni tasniflash asosida boyitilgan;

boshlang'ich ta'limda innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish modeli o'quvchilarda olamni idrok etish va sensorik bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi integrativ dars va integrativ topshiriqlarning funksional komponentlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich ta'limda integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tamoyillari bo'lajak o'qituvchilarning fundamental va kasbiy bilimlarini xalqaro baholash dasturlariga muvofiq adaptiv integratsiyalashuvchi fanlararo o'quv materiallari tayyorlash bosqichlarini belgilash asosida aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarining o'quvchilarda kognitiv ehtiyojlarni shakllantirish imkoniyatlariga ko'ra, pedagogik integratsiyaning metodik funksiyalarini tizimli qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish tamoyillariga tayangan holda oliy o'quv yurtlarida o'qitishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash pedagogik jihatdan asoslangan;

innovatsion va integratsion o'quv texnologiyalarini qo'llash asosida talabalarning bilim, ko'nikma va kasbiy malakalarini oshirish ishlarini tashkil etish sxemasi asoslangan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga uslubiy va ijodiy tayyorgarligini shakllantirish, innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarurligini asoslash amalga oshirilgan;

boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

“Boshlang'ich maktab pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” nomli o'quv qo'llanma yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuvlar va usullar, keltirilgan tahlillarning asosiligi va matematik statistika usullari bilan qayta ishlangan eksperimental ishlarning samaradorligi ko'rsatkichlari, xulosalar, takliflar va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish, shuningdek olingan natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va integratsion texnologiyalarni takomillashtirish mazmun-mohiyatining yoritilganligi, ularni ta'lim jarayonida qo'llashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, vazifalari, omillari, shakllarining aniqlashtirilganligi, talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga doir pedagogik imkoniyatlarining belgilanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, xususan, ta'lim ehtiyojlari asosida o'quv rejaları va dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy ilmiy-uslubiy ta'minotni kuchaytirish va ta'lim sifatini oshirishda talabalarning yuqori darajadagi aqliy aks etishi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan o'quv modulidan maqbul foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va integratsion texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentlilik mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual va fiziologik xususiyatlariga mos keluvchi o'quv jarayonini tashkil etish darajalarini kognitiv jarayonlarga korrelyativligini ta'minlovchi integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga doir ko'nikma va malakalarini tasniflash asosida boyitishga oid taklif va tavsiyalar "Boshlang'ich maktab pedagogikasi, innovatsiya va uning integratsiyasi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-apreldagi 02-07-1155/04-sonli dalolatnomasi, Samarqand davlat universitetining 2022-yil 29-apreldagi 10-son qaroriga asosan berilgan 515-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida boshlang'ich ta'lim talabalari uchun innovatsion va integratsiyalashgan o'quv texnologiyalarini qo'llashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash imkoni kengaytirilgan;

boshlang'ich ta'limda innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish modeli o'quvchilarda olamni idrok etish va sensorik bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi integrativ dars va topshiriqlarning funksional komponentlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar "Boshlang'ich maktab pedagogikasi, innovatsiya va uning integratsiyasi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-apreldagi 02-07-1155/04-sonli dalolatnomasi, Samarqand davlat universitetining 2022-yil 29-apreldagi 10-son qaroriga asosan berilgan 515-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, innovatsion va integratsion texnologiyalarni boshlang'ich ta'limda samarali qo'llashning zaruriy pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga sharoit yaratilgan;

boshlang'ich ta'limda integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tamoyillari bo'lajak o'qituvchilarning fundamental va kasbiy bilimlarini xalqaro baholash dasturlariga muvofiq adaptiv integratsiyalashuvchi fanlararo o'quv materiallarini tayyorlash bosqichlarini belgilash asosida takomillatirishga oid takliflar "Boshlang'ich maktab pedagogikasi, innovatsiya va uning integratsiyasi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-apreldagi 02-07-1155/04-sonli dalolatnomasi, Samarqand davlat universitetining 2022-yil 29-apreldagi 10-son qaroriga asosan berilgan 515-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy innovatsion va integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarini qo'llashga tayyorlash imkoniyati kengaytirilgan;

boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarining o'quvchilarda kognitiv ehtiyojlarni shakllantirish imkoniyatlariga ko'ra pedagogik integratsiyaning metodik funksiyalarini tizimli qo'llash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Boshlang'ich maktab pedagogikasi, innovatsiya va uning integratsiyasi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-apreldagi 02-07-1155/04-sonli dalolatnomasi, Samarqand davlat universitetining 2022-yil 29-apreldagi 10-son qaroriga asosan berilgan 515-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida 14 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta ilmiy maqola chop etilgan, ulardan 4 tasi respublika jurnallarida, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti belgilangan, ilmiy yangiligi aniqlangan, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi tegishli hujjatlar bilan dalillangan, shuningdek, nashr ishlari hamda dissertatsiya tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida "**Innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari**" ochib berilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik shart-

shartlari, boshlang'ich sinflarda qo'llashning alohida ahamiyatga ega ekanligi dalillangan.

Innovatsion pedagogika bizning davrimizda umumiy pedagogika doirasidagi bilimlar sifatida tanilgan, ammo har kuni u dunyo mutaxassislarining e'tiborini tortadi va tez rivojlanayotgan bilimlar tizimidir. An'anaviy pedagogikaning tarbiyaviy ahamiyatini tan oladigan, innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni amalga oshirishga intilishni tadqiq qiladigan olimlar, o'qituvchilar jamoasi bu sohada qat'iy sa'y-harakatlar olib borishmoqda.

Pedagogik ijodning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xususiyatiga bog'liqdir. Pedagogik faoliyat – bu inson shaxsiyatini, uning dunyoqarashini, e'tiqodini, ongini, xarakterini shakllantirish kabi umumiy maqsadga bo'ysunadigan bir qator pedagogik muammolarni hal qilish jarayonidir. O'qituvchining ijodiy faoliyati ta'lim usullarini izlashda va ushbu muammolarga yechim topish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Pedagogik ijod manbayi pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga to'ladir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, o'qituvchining o'z vazifasiga ijodiy yondashishi, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda yangi va samarali usul, vositalarni izlash hamda ulardan foydalanishi tushuniladi.

Hozirda innovatsion pedagogika juda muhim masala hisoblanadi. Uning asosiy xarakteristikasi – obyektivlik, qat'iyatlilik, izchillikdir. Yagona obyektiv talab – bu insonning intellektual rivojlanishi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasidir. Bugungi kunda “innovatsiya” atamasi keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi – inglizcha “yangi, yangilik kiritish, ichki tuzilishni o'zgartirish”, degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya nazariya va amaliyotning muhim qismidir, ya'ni obyektning ijtimoiy-madaniy sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy omillarning bir qator harakatlaridir. Yangiliklar, shuningdek, yangi fikrlarning shakllanishi tashabbus va innovatsiyalarga asoslangan bo'lib, ta'lim mazmunini yaxshilashga qaratilgan. Umuman olganda, bu o'rganish tuzilishi va tartibini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, innovatsiya – bu texnologik jarayonlar yoki muammolarni hal qilishning yangi shakllari va usullaridan foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish texnologiyasi yoki ma'lum bir faoliyat sohasi bo'lib, uning yakuniy natijasi muvaffaqiyatli bo'lishi bilan belgilanadi.

O'qituvchilar va psixologlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanishni shakllantirish bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish natijasida nazariy jihatdan o'quvchilarni o'quv jarayonida har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha ta'lim, rivojlanish va shakllanish muammolarini uyg'unlikda, bir butunlikda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Yangiliklar, odatda, qator muammolarni keltirib chiqaradi, shu bilan birgalikda mavjudlarini hal qiladi. Bu esa pedagogik jarayonning bosqichma-bosqich yangilanishiga olib keladi. Innovatsiyalarni joriy etish konsepsiyasi, bizning fikrimizcha, innovatsiya, tajriba jarayonini hayotga tatbiq etishga qaratilgan nazariyadir. Yangilik – bu bir kishi uchun g'oya hisoblanadi, bu g'oyani obyektiv ravishda yangi yoki eski bo'lishi muhim emas, biz uni yangilikning yaratilish vaqti yoki birinchi foydalanish vaqti bilan belgilaymiz.

Har bir bo'lajak o'qituvchi, mutaxassisligi va faoliyatidan qat'iy nazar, fundamental bilim, kasbiy mahorat hamda muayyan tajribaga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish uchun bo'lajak mutaxassis o'z sohasida, agar ushbu sohaga tegishli muammo yoki savollar tug'ilsa, uni o'z nuqtayi nazari va ijodiy faoliyati asosida hal qilishi, xususan, o'z tadqiqotlari va tajribasini yangi bosqichga ko'tarishi mumkin. Chunki oliy o'quv yurtlarida talabalarning yuqori darajadagi tayyorgarligi va axloqiga talab ham yuqoridir. O'qituvchi ijtimoiy fanlar sohasidagi yangi pedagogik usullarni aniqlay olishi va ulardan samarali foydalanishi kerak.

Innovatsion faoliyat o'qituvchidan aqliy, jismoniy kuchni va shu asosda nazariy bilimlarni, psixologik va kommunikativ nutqni, tashkiliy qobiliyatlar kabi xususiyatlarni talab qiladi.

Axborot texnologiyalari boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda bilimlarni uzatishni sezilarli darajada tezlashtiradigan, talabalarning ijtimoiy o'zgarishlarga tezroq moslashishini ta'minlaydigan vositadir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni axborot texnologiyalari bilan boyitish nafaqat mavjud o'qitish usullari va texnologiyalarini o'zgartiradi, yaxshilaydi, balki kompyuterlar, planshetlar, dasturiy ta'minot va apparat vositalari, video va telekommunikatsiyalar, maxsus uskunalar, shuningdek, turli xil ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq yangiliklarini shakllantiradi. Maqsad hamda vazifalarni tanlashda pedagogik integratsiyani amalga oshirishning qonuniyatlari va xususiyatlari g'oyalar birligini ta'minlash, bilimlarni yagona o'qitish metodikasi va vositalari asosida mustahkamlash uchun amalga oshiriladigan integratsiyaning mantiqiy mazmunini talab qiladi.

Pedagogika fanida integratsiya tushunchasi muhim ilmiy atama bo'lib, u umumlashtirish, xulosa va uslubiy vositadir, chunki u jarayonlar va hodisalar mazmuni o'rtasida universal uyg'unlik algoritmlarini yaratadi. Ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlik sharoitida talabalar bilimlarining samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning bilim qobiliyatlari, faolligi, qiziqishlari va intellektual salohiyati oshadi. O'quv jarayonida fanlarning integratsiyasi, ya'ni fanlararo aloqa talabalarning bilimlarini, shuningdek ularning bilish qobiliyatlari, faoliyati, qiziqishlari, intellektini samarali rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv darslarida fanlararo muloqot qilish imkoniyati talabalarni faktlarni tahlil qilishga, hodisalar va jarayonlarni o'rganishda sabab-oqibat tabiatini tushunishga, ilgari olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashga tayyorlaydi, shuningdek, boshlang'ich maktabda fanlarning integratsiyasini oshiradi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich ta'limda innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni, shakl va metodlari”**, deb nomlangan ikkinchi bobi boshlang'ich sinflarda pedagogik innovatsiyalar va integratsion texnologiyalardan foydalanish mazmunini o'zida aks ettirgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda pedagogik innovatsiyalar va integratsion texnologiyalarning mazmuni yoritilgan, unda innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish shartlari bayon qilingan, shakllari, usullari keltirilgan hamda boshlang'ich ta'lim tarkibida innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish modeli ishlab chiqilgan.

Innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish uchun pedagogik sharoitlarni aniqlash, birinchi navbatda, o'quv jarayonida talabalarning faolligini talab qiladi. O'quvchilarning faolligiga erishish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv jarayonini o'quvchilarning intellektual rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqligini markazlashtirish uchun har bir o'quvchiga alohida e'tibor berishi lozim. Ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, rus tili, chizmachilik, tabiatshunoslik va musiqa kabi fanlararo aloqalarning o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan integratsion darslarda, shuni ta'kidlash mumkinki, pedagogik nuqtayi nazardan ushbu o'quv fanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik esa kichik maktab o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishda bevosita namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda intellektual moyilliklarni aniqlash, iqtidorli shaxslarning namoyon bo'lishi uchun qiziqishlar, iroda, e'tibor, fikr va tadqiqotlar paydo bo'ladi. Keyinchalik, innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilar ijodiy tafakkurining rivojlanishi kuchayadi.

Integratsion dars natijalari talabalarga kelajak haqidagi orzularini, shaxsiyatini shakllantirish va kasb tanlashda aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Chunki, boshlang'ich ta'lim jarayonida talabalar boshqalar bilan o'zaro munosabatlarning yangi turiga kirishadilar. 1–4-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash ularda barqarorlikni oshirish, diqqatni jamlash va ixtiyoriy xotiraning yuqori darajasini shakllantirishga yordam beradi. Matematik qo'shimchalar, bo'linishlar, mantiqiy to'g'ri so'zlardan foydalanish bilan tushuntirish, rangli hamda turli ranglarda bo'yalgan narsalar o'quvchilar darslarning turli bosqichlarida topshiriqlarni bajarayotganda o'quv materiallarini tushunishning samarali usullari hisoblanadi.

Natijada, talabalar ma'naviy qadriyatlarga ega bo'ladilar, axloqiy tuyg'ularini rivojlantiradilar, g'alaba qozonish uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi hamda izlanishlar orqali qiziqarli darslar jarayonida turli xil o'quv vazifalarini bajaradi. Ushbu davrda ular o'zlarining yutuqlari xatti-harakatlariga qarab qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga intilishadi. Dars jarayonida uning muayyan bosqichlarida muvaffaqiyatga erishish, o'rganishga intilish, intellektual rivojlanish va o'z kuchiga ishonishni anglatadi.

Ma'lumki, integratsiya – bu sintez, yangisining paydo bo'lishini anglatadi. Yangilikning paydo bo'lishi juda murakkab hisoblangan bilish jarayonidir, shuning uchun integratsion darsni o'tkazish yoki aniqrog'i tayyorlash uzoq va maxsus jarayon sanaladi. Tadqiqot nuqtayi nazaridan esa integratsiyani individual tizimlarning (mavzular, talabalar bilimlari) bir butunga yaqinlashishi va aloqasi, ya'ni sintezi, yangilikning paydo bo'lishi sifatida qaraymiz.

Teng sharoitlarda ishlaydigan turli xil, ammo yaqin ta'lim sohalarining kombinatsiyasi, shuningdek, ulardan biri o'ziga xoslikni saqlaydigan, boshqalari esa yordamchi asos bo'lib xizmat qiladigan yaqin ta'lim sohalarining subyektlari bo'lishi mumkin. Bitta fan negizida, asosan bitta ta'lim sohasi yoki blokdan iborat o'quv fanlarini birlashtirish lozim. Bilamizki, o'quv jarayonining o'zgaruvchan

qismi masofaviy ta'lim sohalaridagi fanlarni birlashtirgan integratsion kurslarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bunda keyingi mavzu avvalgisidan kelib chiqadigan integratsiya bo'lishi mumkin. Quyida integratsion muhit darajalari keltirilgan:

birinchi daraja – tabiiy fanlar va gumanitar madaniyatlarning integratsiyasini ifodalab, o'quv fanlarini birlashtirish, ularning o'zaro ta'sirida borliq fanlariga yaxlit qarashlarni, obyektlarning ma'naviy salohiyatini ochib berishga yondashuvlarni izlash muhimdir;

ikkinchi daraja – o'rganilayotgan fanlarning rivojlanishi asosidagi integratsiyasi o'quv jarayonida fanlararo xarakterdagi yetakchi tushunchalarni shakllantirishning yagona dasturlarida, o'qituvchilar metodikasida namoyon bo'ladi. Bunday ishlarni o'quv kurslarining asosiy yo'nalishlarini ajratish asosida amalga oshirish mumkin;

uchinchi daraja – nafaqat ma'lum bir mavzuni, balki o'quv fanlari o'rtasidagi munosabatlarning "gorizontal" tuzilmalarini amalga oshirish asosida obyektlar siklining amaliy yo'nalishini amalga oshirish va kuchaytirish orqali integratsiyalashdir.


Ta'lim oluvchilar uchun inson faoliyati, moddiy va ijtimoiy voqelikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish ta'lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Bu o'qituvchining to'g'ridan-to'g'ri o'quvchilarning subyektiv tajribasiga va uning tushunchasiga keng murojaat qilishini o'z ichiga oladi. Integratsion dars – bitta tushuncha, mavzu yoki hodisani o'rganishda bir vaqtning o'zida bir nechta fanlardan o'rganishni birlashtiradigan maxsus dars turi hisoblanadi. Integrativ vazifa esa o'quv vazifasining bir turidir. Uning o'ziga xos xususiyati turli xil fanlar, turli xil o'quv dasturlari, mavzular, muammolar haqidagi bilim va ko'nikmalarni sintez qilish, ularni bir masala, bitta muammoni hal qilish, bitta obyekt yoki bir nechta obyektни bilish uchun birlashtirishdir. Umuman olganda, integral topshiriqlar fanlararo, sikllararo yoki o'quvchilarning nazariyasi va shaxsiy tajribasini bog'lash sifatida ishlab chiqilgan. Darsda yangi materialni o'rganish shaklini tanlash mashg'ulot ishtirokchilarining saviyasi, bolalarning xususiyatlari va tayyorgarlik darajasi, mavzuning xossalari, auditoriyaning imkoniyatlari, texnik jihozlari, o'qituvchining mahorati va boshqalarga uzviy bog'liq bo'ladi.

Integratsion dars quyidagi afzalliklarga ega:

- talabalarining turli xil intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratiladi;
- talabalar dunyoni, atrofdagi voqelikni idrok etishning yanada yaxlit tasvirini olishadi;
- individual mavzularni o'qitish muddatlari qisqartiriladi;
- o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari, ya'ni o'rganish istagi va qobiliyati shakllanadi;
- turli mavzulardagi materiallarni bir butun sifatida o'zaro bog'liqligini o'rganish qobiliyati rivojlantiriladi;
- aqliy faoliyatni rivojlantirish amalga oshiriladi;
- talabalar nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun keng imkoniyat yaratiladi;

- o'rganish istagini kuchaytiradi va ijobiy axloqiy fazilatlarni boyitadi;
- atrof-muhit, dunyo va insonlarning o'rniga yaxlit qarash shakllanadi;
- ilmiy bilimlar, adabiyot, rasm, musiqa va boshqalarni jalb qilgan holda dunyoni xilma-xilligini to'liq namoyish etish imkoniyati yuzaga chiqadi.

Tadqiqot davomida olib borilgan izlanishlar va tajriba-sinov ishlarida qo'llanilgan metodikalar asosida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida innovatsion va integratsion o'qitish texnologiyasidan foydalanishni takomillashtirish modelini loyihalash imkoni paydo bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. Boshlang'ich sinflarda innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish modeli

Boshlang'ich ta'limda innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish talabalarni individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, tanlangan o'quv topshiriqlari bilan ta'minlash asosida o'qituvchiga ishni avvalgi faoliyat natijalariga tayanish, solishtirish, keyingi o'quv vazifasini bajarishga hissiy yo'naltirilgan ongli ehtiyojni yaratadigan tarzda tashkil etishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Boshlang'ich ta'limda innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi”**, deb nomlanadi va tajriba-sinov ishlari jarayonini qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur bobda innovatsion va integratsion ta'limdan foydalanish darajasining hozirgi holatini tahlil qilish va tajriba-sinov ishlarining samaradorligi yoritilgan.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion va integratsion o'qitish texnologiyasidan foydalanishni shakllantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqich – aniqlash bosqichi (2020–2021-o'quv yili), ikkinchi bosqich – shakllanish bosqichi (2021–2022-o'quv yili), uchinchi bosqich – umumlashtirish (2022–2023-o'quv yili).

Tajriba-sinov ishlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Buxoro davlat universitetlarida o'tkazildi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda innovatsion va integratsion ta'lim texnologiyasidan foydalanish va amalga oshirishda o'quv materialini o'zlashtirish uchun alohida yondashuv zarur.

Pedagogik tajriba-sinov ishlariga doir ma'lumotlarini tahlili va taqqoslash tajriba guruhlarini natijalarining samaradorligini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval

Boshlang'ich sinflarda innovatsion va integratsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha samaradorlikni aniqlash ko'rsatkichlari


Tajriba guruhi				
O'tkazish joyi	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajasi		
		Yuqori	O'rta	Past
SamDU	156	54	83	19
JizDPU	117	35	75	7
BuxDU	133	36	84	13
Jami	406	125	242	39
Nazorat guruhi				
SamDU	154	35	86	33
JizDPU	120	27	65	28
BuxDU	122	31	71	20
Jami	396	93	222	81

Tajriba-sinov ishlari oxirida nazariy va empirik usullar asosida erishilgan natijalar aniqlandi. Tadqiqot natijalarining samaradorligini matematik va statistik tahlil qilish uchun Student-Fisher mezonidan foydalanildi. Tahlil qilish uchun jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarning o'rtacha umumiy qiymati olindi va tegishli hisob-kitoblar amalga oshirildi (2-jadval).

Boshlang'ich sinflarda innovatsion va integratsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha samaradorlikni aniqlash o'rtacha ko'rsatkichlari

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajasi		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	135	41	81	13
Nazorat guruhi	132	31	74	27

Bizning ma'lumotlarimizga mos keladigan diagramma quyidagicha bo'ladi (2-rasm):



2-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari

Agar biz tajriba va nazorat guruhlaridagi baholash natijalarini mos ravishda 1- va 2-tanlannalar uchun qabul qilsak, bizda quyidagi variatsion qatorlar paydo bo'ladi:

1-tanlanna	X_i	Yuqori;	O'rta;	Past;
(tajriba guruhi)	n_i	41;	81;	13;
$e=135$				
2-tanlanna	Y_j	Yuqori;	O'rta;	Past;
(nazorat guruhi)	n_j	31;	74;	27;
$\kappa=132$				

$$\bar{X}_i = \frac{1}{135} [41 \cdot 5 + 81 \cdot 4 + 13 \cdot 3] = \frac{1}{135} (205 + 324 + 39) \approx 4,21$$

